



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISH NAZARIYASI VA MATEMATIKA DARSLARINI IJODIY TASHKIL ETISH

Anvarjon Yusupov

<https://orcid.org/0009-0000-2980-3198>

yusupovanvarjon52@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasii
matematika fani katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17331298>

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinflarda matematika darslarini ijodiy tashkil qilish, matematika fanini o'qitish, metod va didaktik o'yinlarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, matematika, matematika faniga ijodiy yondashish, boshlang'ich sinf, didaktik o'yin, metod, noma'lum son.

Hammamizga ma'lumki, bugungi zamon taraqqiyoti shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bizning mamlakatimizda ham yangicha islohotlar avj olmoqda. Hamma sohada tubdan o'zgarishlar qilinmoqda. Shu bilan birga, eng avvalo ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor ham kuchayib bormoqda ayniqsa, hamma fanlar qatori matematika faniga va u fanni qay yo'sinda o'qitishga, darsga qanday yondashish kerakligiga, o'quvchilarni matematika faniga bo'lgan qiziqishi va ishtiyoqini oshirishga, matematika

darslarini sifatli tashkil etishga bo'lgan e'tibor kundan kunga muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Chunki matematika hamma fanlarga asos hisoblanadi. Matematikadan chuqur bilimga ega bo'lgan inson hayotda qoqilmaydi va o'z o'rniga ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda matematika faniga ijodiy yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Matematika fani boshlang'ich sinflarda juda muhim o'ringa ega. O'rta umumta'lim maktablarida matematika o'qitishning maqsadi O'rta maktablarda matematika o'qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi.

2. Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi.

3. Matematika o'qitishning amaliy maqsadi.

Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi o'z oldiga qitidagi vazifalarni qo'yadi:

a) O'quvchilarga ma'lum bir dastur asosida matematik bilimlar lizimini berish. Bu bilimlar tizimi matematika fani to'g'risida O'quvchilarga yetarli darajada ma'lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo'limlarini o'rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o'quvchilar o'qish jarayonida olgan bilimlarining

ishonchli ekanligini tekshira bilishga o'rganishlari, ya'ni isbotlash va nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari kerak;

b) O'quvchilarning og'zaki va yozma matematik bilimlarini tarkib loptirish. Matematikani o'rganish o'quvchilarning o'z ona tillarida xatosiz so'zlash, o'z fikrini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta bilish malakalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bu degan so'z o'quvchilarning har bir matematik qoidani o'z ona tillarida to'g'ri gapira olishlariga erishish hamda ularni ana shu qoidaning matematik ifodasini formulalar yordamida to'g'ri yoza olish qobiliyatlarini atroflicha shaklantirish demakdir;



d) o'quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o'rgatish. O'quvchilarda matematik bilimlarni yanada oshirish biz pedagoglarning o'ta muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Yosh avlodning ongiga matematik bilimlarni to'g'ri va bexato singdirish esa tajribali qolaversa, har qanday yosh pedagogning o'ta mas'uliyatli vazifalaridan biridir. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev matematika to'g'risida: "Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi",-degan fikrlari asl haqiqat dasak mubolag'a bo'lmaydi, albatta. Haqiqatdan ham, matematika barcha fanlarning otasi hisoblanib, qolgan fanlarni yaxshi o'zlashtirib olish uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Matematikadan yetarlicha bilimga ega bo'lgan bola boshqa fanlarni hech qiynalmay o'zlashtira oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda matematik bilimlarni to'g'ri shakllantirish va ularni fanga bo'lgan qiziqishini oshirish shu orqali ularning orasidan yosh matematiklarni tanlab olish, buning natijasida matematik ajdodlarimiz hisoblangan al-Xorazmiy, al-Farobiy va Ulug'beklar izdoshlariniko'paytirish ,asosan, ana shu davrdan boshlanadi. Buning uchun biz pedagoglar ta'limni ya'ni darsdagi fanlarni innovatsion texnologiyalardan keng foydalangan holda va albatta bilimimizga tayanib, ijodkorligimizni ishga solgan holatda, ertanggi kunning keng dunyoqarashga ega bo'lgan yuksak salohiyatli, har tomonlama aqlan va jismonan barkamol yosh dohiylarni tarbiyalashimiz va ularning Vatanimiz ravnaqiga o'z xissasini qo'sha oladigan komil inson qilib o'stirishga xizmat qiladi. Yuqorida aytganimizdek, boshlang'ich sinflarda matematika darslarini ijodiy tashkil qilish-darsning amaliy samaradorligini ta'minlabgina qolmay, kelgusida buyuk kelajagimizga tamal toshlarini qo'ya oladigan yosh Xorazmiylar va Ulug'beklar bo'lgan

avlodning fanga bo'lgan qiziqishini ham oshiradi. Matematika darslarida metod va didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarda yashirinib yotgan qobiliyatlarni yuzaga chiqarishda, darsdagi mavzuga qiziqtirishda va ayniqsa, o'sha mavzudagimaterialni yaxshi eslab qolishda juda qo'l keladi. Matematika darslarini kreativ yondashib tashkil qilish sifatli ta'limga olib keluvchi yo'l hisoblanadi. Chunki darsga noan'anaviy yondashish o'quvchida odatiy darslarga qaraganda kuchli qiziqish va darsgabo'lgan ishtiyoqni uyg'otadi. o'yin orqali o'quvchi yangi mavzuni tez o'zlashtiradi va eslab qoladi. Shuningdek didaktik o'yinlar o'quvchilarda chaqqonlikni oshirishi bilan birga, tez, to'g'ri fikrlashga va o'z fikrini dadil qo'rqmasdan aytishga undaydi, qolaversao'quvchilarda didaktik o'yin orqali jamoaviy hamjihatlik, o'z tengqurlariga bo'lgan hurmat va ,albatta, do'stona munosabatlarni shakllantiradi. Darhaqiqat, shuning uchun ham biz pedagoglar har bir darsda yangi metodlar va didaktik o'yinlardan foydalangan holda, darsni tashkil eta olsak, albatta, har tomonlama o'tkir zehnga, keng dunyoqarash va intellektual salohiyatga ega barkamol avlodni o'stirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. o'quvchilarda yashirinib yotgan qobiliyatlarni ochishda va ularni qaysi fanga qiziqishi yuqori ekanligini aniqlashda ana shunday turli xil pedagogik texnologiyalar, metod va didaktik o'yinlarning ahamiyati katta hisoblanadi. Yosh avlodga olgan bilimlarini yanada mustahkamlab, chuqurlashtirishda, ularda amaliy ko'nikmalar hosil qilishda vayangi materialni to'laqonli o'zlashtirib olishda didaktik o'yinlar va metodlarni qo'llash ta'lim sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Matematika darslarida didaktik o'yinlardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish, o'quvchini yangi mavzuni o'zlashtirib olishga yordam beradi va o'zida bor



bo'lgan bilimlarni yanada mustahkamlashga ko'maklashadi. Aytish mumkinki, bunda masalan, boshlang'ich sinfda 3-sinf matematika darsligidagi "Tenglamalar" mavzusiga quyidagicha ijodiy yondashsa bo'ladi. Jumladan, "Tenglamalar" mavzusini o'quvchilarga "Mening yulduzim" deb nomlangan yangicha didaktik o'yindan foydalangan holda yangi darsni yangicha tarzda tashkillashtirsak maqsadga muvofiq. Chunki boshlang'ich sinfda tashkillashtirilayotgan o'yin nomi ham o'quvchilar diqqatini torta olishi kerak va yangi mavzuga bo'lgan qiziqishini ham oshirishi muhim ahamiyatga ega. Masalan, quyidagicha: "Mening yulduzim" didaktik o'yini bu didaktik o'yin o'qituvchi, ya'ni pedagog xodim qolaversa, o'quvchilardan ham ijodkorlikni talab etadi. Ya'ni bu o'yinni "Tenglamalar" mavzusiga moslashtirish quyidagicha: o'qituvchi yangi mavzuni o'quvchilarga tushuntirib bo'lgach, doskaga har xil sonlar yozilgan katta plakatni yopishtiradi, bu plakatda tenglamalardan hosil bo'ladigan natijalar yozilgan sonlar bo'ladi. Keyin o'qituvchi har bir qatorga bittadan savat qo'yadi va o'yin shartini o'quvchilarga yaxshilab tushuntiradi. Bu savatlarning ichida besh qirrali va har xil rangdagi yulduz bo'laklari qirqib aralashtirilgan bo'ladi va o'quvchilardan tashkil topgan har bir qator bir jamoa qilib olinib, jamoaga nom beriladi.

Har bir jamoadan bitta o'quvchidan chiqib, savatdan o'ziga yoqqan kerakli rangni tanlab, yulduzning qirralarini bir xil ranglardan tashkil toptirib, yulduzning bir bo'lagida yashiringan noma'lum sonni to'g'ri topishi va buning uchun avvalo yulduzning bo'laklaridagi arifmetik amal va sonlarni raqamlangan yulduzning bo'laklarni soat strelkalari bo'yicha to'g'ri joylashtirib tenglamani bexato va uddaburonlik bilan tuzib olishi karak bo'ladi. Natijani topgach, xattaxtdagi katta plakatda yozilgan sonlardan birining ustiga ya'ni tenglamadagi noma'lum sonni topgandagi natija ustiga o'z yulduzini yopishtiradi va u o'quvchi o'z yulduziga ega bo'ladi. Bu o'yinni bexato va oldin bajargan o'quvchi o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi va o'yin shu tariqa davom etadi. O'yin so'ngida g'olib bo'lgan jamoa ishtirokchilari maxsus mukofotlanadi. Buni har qaysi pedagog o'z fantaziyasidan kelib chiqib rejalashtirishi mumkin. Masalan, aynan mana shu didaktik o'yinni dars jarayoniga tatbiq qilgandan so'ng, g'oliblarni yulduz ko'rinishidagi oltin rangdagi yulduzcha berib "Matematika bilimdoni" deya mukofotlashi ham mumkin. Shunday ekan, bunday didaktik o'yinlarni matematikaning boshqa mavzularidayam qo'llay olamiz hamda ular orqali darsga ko'tarinki ruhda yondasha olamiz va o'quvchilarning ham faolligini oshiramiz. Shu tarzda matematika darslarini ham ijodiy tashkillashtirilsa, ko'zlangan ezgu maqsadga oson erishish mumkin. Darslarni qanday tashkillashtirish o'qituvchi pedagogning ko'p yillik tajribasiga, ayniqsa uning mahoratiga va ijodkorligiga bog'liq. Demak, matematika darslarini ijodiy tashkil qilish eng avvalo sifatli ta'lim garovi va qolaversa, intellektual salohiyatli, keng fikrlovchi barkamol avlodni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Darsni noan'anaviy tarzda ijodiy tashkillashtirish o'quvchini mustaqil fikrga va keng dunyoqarashga ega bo'lgan yangi iste'dodlarni kashf etuvchi bo'lib xizmat qilsa ajabmas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.M. E. Jumayev, Z. G'.Tadjiyeva. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. T., "Fan va texnologiya", 2005.
- 2.S. Alixonov. Matematika o'qitish metodikasi. Cho'lpon nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, Toshkent -2011.



- 3.L. O'rinboyeva, Sh. Ismailov, X. Yusupov, N. Ruzikulova, U. Raxmonov, Sh. Haqberdiyeva, N. Yusupova, A. Baymanova. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3- sinf uchun darslik. Toshkent-2022.
4. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari. Boshlang'ich ta'lim –Ta'lim taraqqiyoti|| jurnali, Toshkent –Sharq||, 1999, 7 - son
5. Levenberg L.Sh. va boshqalar. –Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Toshkent –O'qituvchi
6. Bikbaeva N.U. va boshqalar. –Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Toshkent –O'qituvchi|| 1996 yil.
7. Skatkina A.A. –Metodika prepodaveniya matematiki v sredney shkole.|| Moskva –Prosveshenie||.
8. "Inequalities. Theorems, Techniques and Selected problems" (Zdravko Cvetkovski).